



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

O'ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOIY MANFAATLARI USTUVORLIGINING IJTIMOIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI

Isaxonov Jafarxon

Samarqand davlat chet tillar instituti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlar ijtimoiy manfaatlari ustuvorligi, davlatimiz tomonidan yoshlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash va ularning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash borasida samarali siyosatini ishlab chiqdi va unga amal qilish borasidagi olib borilayotgan chora-tadbirlar ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Jamiyat, yoshlar, ijtimoiy manfaatlar, yoshlar manfaatlari, huquq, yoshlar huquqi, farovonlik, innovatsiya, tashabbuslar.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРИОРИТЕТА СОЦИАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ МОЛОДЕЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Исахонов Джафархон

Самаркандский государственный институт иностранных языков, независимый
исследователь

Аннотация

В статье научно анализируется приоритет социальных интересов молодежи в Узбекистане, а также государственная политика, направленная на всестороннюю поддержку молодежи и обеспечение ее социальных интересов. Рассматриваются реализуемые меры и инициативы, направленные на укрепление правовой, социальной и инновационной активности молодежи в обществе.

Ключевые слова: общество, молодежь, социальные интересы, интересы молодежи, право, права молодежи, благополучие, инновации, инициативы.

SOCIO-PHILOSOPHICAL FEATURES OF THE PRIORITY OF YOUTH SOCIAL INTERESTS IN UZBEKISTAN

Isaxonov Jafarxon

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Independent Researcher

Abstract

The article provides a scientific analysis of the priority of youth social interests in Uzbekistan, as well as the state policy aimed at comprehensive support for young people and the protection of their social interests. It examines the measures and initiatives implemented to strengthen the legal, social, and innovative engagement of youth in society.

Keywords: society, youth, social interests, youth interests, law, youth rights, well-being, innovation, initiatives.

Bugungi kunda mamlakatimiz huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lidan dadil odimlab bormoqda. Fuqarolik jamiyatining rivojlanish sharoitida jamiyatning asosiy qatlami bo'lgan yoshlarning ijtimoiy manfaatlari va ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi. Inson manfaatlari va farovonligi asosiy tamoyil bo'lgan milliy yuksalish sharoitida yoshlarning hayotiy faoliyatlari samaradorligini ta'minlash

borasida muhim istiqbolli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatdagi taraqqiyotga oid g'oyalar, fuqarolik jamiyati ustuvor tamoyillarining samara berishi yoshlarning farovonlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida "Yoshlarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish – eng ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim. Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz. ...Biz barchamiz "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" degan yagona maqsad atrofida birlashib, mas'uliyat va javobgarlikni chuqur his etgan holda, fidokorona mehnat qilib, o'z orzu-maqсадlarimizga, insho'lloh, erishamiz", deb ta'kidladi.

O'zbekistonda davlat yoshlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash va ularning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash borasida o'z oqilona siyosatini ishlab chiqdi va unga amal qilib kelmoqda. Shuni ham aytish kerakki, yoshlar borasidagi ana shu siyosatga muvofiq ish olib borish barcha davlat va jamoatchilik tuzilmalari, OAV, korxona va tashkilotlar, mahalla, o'quv yurtlari uchun kolaversa, butun mamlakat uchun foyda berishi muqarrar. Yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash, ularni ilm-fan cho'qqilarini egallash, yangiliklarni joriy etish, innovatsion jarayonlarga o'rgatib borish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Янги Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатининг ижтимоий амалиётда рўёбга чиқариш воқелигида жуда йирик масштабдаги чора-тадбирлар амалга оширилди. Бу ижтимоий муносабатларнинг барча қирралари ва тизимларида ўзига хос намоён бўлди. У.Бўтаевнинг таъкидлашича, "Ёшларга оид фаол давлат сиёсатини олиб бориш, хусусан ёшларни касб-хунар ва чет тилларига ўқитиш, уларнинг бандлигини таъминлаш, бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича талай ишлар қилинди. Ушбу йўналишда фуқаролик жамиятининг энг қуйи бўғини – маҳалладан бошлаб ёшларни қўллаб-қувватлаш бўйича "Яхлит вертикал бошқарув тизими" яратилди. Шу асосда республикадаги 9 452 маҳаллада Ёшлар етакчилари иш бошлади, "Ёшлар баланси" шакллантирилди".

Makon va zamon nuqtai nazaridan olib qaraganda buguni davr tarixda tezkor va shiddatligi, murakkab va tez rivojlanib borayotganligi bilan ajralib turadi. Har bir davrning mazmun-mohiyati, rivojlanish qonuniyatlarini to'g'ri anglash, ularni tushunish va jarayonlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda bugungi davr ijtimoiy munosabatlarida yoshlarning qizg'in va faol ishtirok etayotganligi zamonaviy davr tamoyillari, xususiyatlari va mohiyatini yanada ijobiy tomonga burib yuboradi va jamiyatda mavjud qonuniyatlarining ishlashi va takomillashishuviga xizmat qiladi. M.Ilinskiyning ta'rificha, "yoshlar - aholining nisbatan jismoniy sog'lom qismi, jamiyatning hayotiy kuchi va energiya manbai, beqiyos intellektual va zaruriy jismoniy kuchi bo'lib, jamiyat uning hisobiga jonlanib turadi".

Hozirda kundalik hayotimizda ijtimoiy-huquqiy, iqtisodiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarida keng ishtirok etayotgan, jamiyatning barcha jabhalarida faollik namunalarini ko'rsatayotgan yoshlar fenomenining ijtimoiy ahamiyati yuksakdir. Hozirda jamiyat taraqqiyoti yo'liga e'tibor berilsa, ilm-fan, ta'lim, tarbiya, yoshlarga e'tibor va jamiyatni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilishga qaratilgan islohatlar bilan aniq natijalarga erishilgan. Yangiliklar insonlar ayniqsa, yoshlardan moslashuvchanlik, ilg'or fikrlash, innovatsion yondashuvlarni talab qilgan. Shuning uchun yoshlar faolligi milliy yuksali va fuqarolik jamiyati barqaror taraqqiyotining mezonini hisoblanadi.

Jamiyatimizda milliy yuksalish sharoitida yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy jihatdan takomilini ta'minlash borasida muhim istiqbolni ko'zlagan dasturiy chora-tadbirlar olib borilmoqda. Bugungi globallashuv davrida yoshlarimiz o'zining ijtimoiy taraqqiyotga, milliy yuksalishga bo'lgan moyilligi va ma'naviy salohiyati bilan yangi O'zbekistonni barpo etishda ishtirok etmoqda. Bu esa, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda istiqbolga mo'ljallangan yangicha bunyodkorlik an'analarini vujudga keltirmoqda. Demak, "Bu hol jamiyatning barcha jabhalarida - ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy- ma'rifiy, mafkuraviy sohalarida o'zini ko'rsatadi. Ayni paytda, yuksak huquqiy madaniyatga ega, ijtimoiy faol insongina yurt tinchligi uchun jonkuyar va tom ma'nodagi vatanparvar hisoblanadi".

Ijtimoiy munosabatlarning asosiy sub'ekti bo'lgan yoshlar, ularning manfaatlari va faravonligini ta'minlash jamiyatning eng muhim qadriyati hisoblanadi. Yoshlar ijtimoiy hayotda boshqa ijtimoiy guruhlar bilan o'zaro munosabatlarda muntazam tizim yaratadi, kishilararo birgalikdagi faoliyatining turli shakllarini birlashtirib, o'zlarining hayotiy mavjudlik sharoitlarini ta'minlashga, manfaatlar, qadriyatlar, ehtiyojlar, shu jumladan ijtimoiy aloqalarni ta'minlashga bo'lgan xatti-harakatlarni ro'yobga chiqaradi. Yoshlar manfaatlarini ta'minlash davlatimiz siyosatining eng muhim, ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Olimlarning ta'kidlashicha, "Yosh avlodning har tomonlama barkamol rivojlanishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratish O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab yoshlarning manfaatlariga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Zero, bu kelajakka yo'naltirilgan sarmoya hisoblanadi, chunki mamlakat aholisining 18 yoshdagilar soni 40 foizni, 30 yoshgacha bo'lganlar 64 foizni tashkil etadi".

Yoshlarning jamiyat kelajagi uchun muhim poydevor hozirlashiga ularning islohotlar markazida bo'lishi mustahkam shart-sharoit yaratadi. Bu jarayonda yoshlarning jamiyatning turli sohalarida strategik dasturlar va vazifalarni bajarishlarida o'ziga xos faollik munosabatlarini vujudga keltiradi. Shuningdek, bugungi kunda jamiyatning barcha sohaları, tuzilmalari va institutlari yoshlar ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash uchun daxldor bo'lib, ular o'ziga xos mas'uliyat bilan bu dolzarb jarayonda ishtirok etmoqdalar. Olimlarning ta'kidlashicha, "Fidokorlik g'oyasi insonlarni birlashtirib turadigan, ya'ni kindik qoni to'kilgan tuproq, ajdodlar merosi va qadriyatlari bilan faxrlanadigan, xalq g'amini o'z g'ami deb bilib, har qanday tahdid, xavf-xatar va qiyinchiliklar oldida bosh egmaydigan, Vatan taraqqiyoti, ijtimoiy adolat yo'lida o'z hayotini ham fido qilishga tayyor, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan fidokor shaxslarni birlashtiradi".

Jamiyatda yoshlar moddiy manfaatlarini ta'minlanishi ko'proq uning ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqadi. Ijtimoiy ehtiyojlar yoshlarning hayotdan qoniqish hissini shakllantiradigan ma'naviy qadriyatlarni vujudga keltiradi. Ijtimoiy ehtiyojlar juda xilma-xildir: tadbirkorlik va iqtisodiy munosabatlar, o'z atrofida qilar bilan chuqur do'stlik o'rnatish, kasbiy rivojlanish va o'z imkoniyatlarini namoyon qilish, odamlarni baxtli qilishga intilish, jamiyatga va uning a'zolariga hurmat qobiliyatini shakllantirish, muhtojlarga yordam berish va boshqalar.

Zamonaviy sharoitda ijtimoiy munosabatlarda yoshlar qatlami ishtirokining muhim xususiyat ekanligini hisobga olib, ularning hayotiy muhim manfaatlarini va ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy muammolarini echish, ularga munosib ish sharoitlarini yaratib berish borasida innovatsion takliflar:

- jamiyatda yoshlarni ijtimoiy manfaatlarini ta'minlashning innovatsion jarayonlarini tashkil etish va bu munosabatlarda ularning innovatsion tafakkuri, innovatsion resurslari, innovatsion tashabbuslari, innovatsion salohiyatini rivojlantirish;

- yoshlarni kasbga yo'naltirish, ish bilan ta'minlash, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan "Tadbirkor – yurt tayanchi" mehnat yarmarkalarini

tashkil etish, uyushmagan yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish maqsadida “Tomorqam - mening boyligim” tanlovini o‘tkazish;

- uyushmagan yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish maqsadida qishloq va mahallalarda sport klublari (fitnes, trenajyor zal, tennis, futbol maydonchalari, suv havzalari, shaxmat-shashka)ni tashkil etishni yanada rivojlantirib va yoshlarni jalb etish;

- tumanlarda, tuman va qishloq markazlarida yoshlar madaniy hordiq chiqaradigan zamonaviy innovatsion madaniy maskanlar, kutubxonalar, parklar, konsert zallari, kinoteatrlar tashkil etish, mahallalardagi uyushmagan yoshlar uchun “Ko‘chma yoshlar teatr studiyalari” tashrifini tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига Мурожаатнома. 2020 йил 29 декабрь. <https://president.uz>.
2. Бўтаев У. Жамиятнинг барча соҳаларида ижобий натижалар. <https://uza.uz/uz/posts/17.01.2026>.
3. Ильинский И. Молодежь как социальная ценность и фактор перемен. www.ilinskiy.ru
4. Маврулов А. Миллий истиқлол ғояси: юрт тинчлиги. – Тошкент: Nuron zamin ziyo, 2016. – Б. 29.
5. Муҳаммаджонов О., Муҳиддинова Ф. Ўзбекистонда Ёшлар ҳуқуқи: қонун ва имтиёзлар. – Тошкент: Маънавият, 2019. – Б. 3.
6. Эргашев Ф., Эргашев И.. “Фидойилик ҳаёт мазмуни”. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 4.